

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 4, 2022

www.psixologiyabuxdu.uz





The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency

According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.

Address:

*200117, Buxoro city,
K.Murtazoyev street, 11
Buxoro State University
Editorial and publishing
Department
Phone: +998 (97) 798-33-75*

The journal is published 4 times a year

*Website: www.psixologiyabuxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 25-fevral № 05-45-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi 2013-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:

*200117, Buxoro shahri,
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy
Buxoro davlat universiteti
"Tahririyat nashriyot" bo'limi
Tel: +998 (97) 798-33-75*

Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.

*Website:
www.psixologiyabuxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*

Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.

Адрес:

*город Бухара 200117,
улица М.Икбала, 11
Бухарский государственный
университет
Редакционный отдел
тел: +998 (97) 798-33-75*

Журнал выходит 4 раза в год.

*Website:
www.psixologiyabuxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz*



Olimov Laziz Yarashovich,
Buxoro davlat universiteti,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasи dotsenti

SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOIY-PSIXLOGIK KOMPETENTLIGI VA HUQUQIY BILIMDONLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentligini rivojlaniruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsiyal va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlanirishda sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: sud psixolog eksperti, sotsial-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertiza, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, ekspert shaxsi, hissiy-irodaviy sifat, kasbiy faoliyat

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствования его конкретных социально-психологических факторов, выявление социально-психологических факторов и компонентов, развивающих социально-психологическую компетентность. компетентность судебного психолога, исследующего проявление и развитие коммуникативного, эмоционального и личностного компонентов у судебного психолога; раскрывается связь права с правовой системой в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоционально-волевые качества, профессиональная деятельность

DEVELOPMENT FACTORS OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND LEGAL KNOWLEDGE OF FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

Abstract: This article discusses the research of the manifestation and development of socio-psychological competence factors in the work of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, identifying the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence of a forensic psychologist, researching the manifestation and development of communicative, emotional and personality components in a forensic psychologist; the connection of the law with the legal system in the development of the socio-psychological competence of forensic psychologists is revealed.

Key words: forensic psychologist expert, socio-psychological competence, forensic psychological expertise, professional competence, competence, expert personality, emotional-volitional quality, professional activity

Kirish. Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, jumladan, Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science¹) tomonidan 2018-2023 yillarga mo'ljallangan «Psixologiya sohasini yanada takomillashtirish konsepsiysi»da malakali psixologlarni tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlanirishda ijtimoiy psixologik fanlarni

¹ <https://www.iupsys.net/> UPsyS Statement on Conflict in Eastern Europe.

o'qitish bilan bir qatorda ularga ekspert baholash olish salohiyatini oshirishning samarali mexanizmlarini ham yo'lga qo'yish, sud psixologik ekspertizasi ekspertlari kasbiy kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzARB muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, butun dunyoda o'ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida sud psixologik ekspertizasi ekspertlari faoliyatiga qo'yiladigan talablar ularning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini psixologik jihatdan takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga zarurat borligidan dalolat beradi.

Dunyo miqyosida sud psixolog ekspertlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini baholash sotsial-psixologik kompetentlikni takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshirqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuuni ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixologik ekspertizasi ekspertlarining psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, sud psixologik ekspertizasi ekspertlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari hamda va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sud psixolog ekspertiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Dunyoda sud psixolog ekspertlari sotsial-psixologik kompetentlik omillarining rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida psixolog ekspert sotsial-psixologik kompetentligiga ta'sir qiluvchi komponentlar aniqlangan (Yale university); sotsial-psixologik kompetentlikni faoliyat jarayonida takomillashtirish mezonlari tizimlashtirilgan (Harvard University); psixolog ekspertlarining psixologik kompetentligini rivojlantirishga mo'ljallangan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Stanford University); psixolog eksperti sotsial-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirishning kompleks mexanizmlari amaliyotga tatbiq qilingan; sotsial-psixologik kompetentlikni tafakkur jarayoni bilan bog'liq nazariy va empirik asoslari ochib berilgan (National University of Singapore).

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va unga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni baholash hozirgi kungacha xorij hamda mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan bir qancha tadqiqotlar predmetiga aylangan. Robert Torndayk (1937), G.Gardner (1983), P.Selov va J.Mayer, (1990), [Daniel Goulman](#) (1995) kabi xorij olimlari ilmiy izlanishlarida sotsial-psixologik kompetentlikka ta'sir qiluvchi omillar va komponentlarni tadqiq qilganlar.

Professional kompetentlikning tuzilishi va shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar A.K.Markova, L.M.Mitina, Ye.A.Mileryan, A.A. Bodalev, Ye.P.Ermalayeva, L.E.Panin kabi rus olimlari tomonidan bajarilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan B.Qodirov, D.Muxamedova, G'.Shoumarov, V.Karimova, Sh.Baratov, Z.Nishonova, A.Jabborov, M.Davletshin, E.G'oziev, B.Umarov, G'.Normurodov, H.Mahmudovalar o'z tadqiqotlarida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy kompetentlikka ta'siri, o'rni va ahamiyatini ta'kidlab o'tishgan. Ularning tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikka ta'sir qiluvchi shaxsnинг muomala madaniyati, muomalaning kasbiy faoliyatni boshqarishdagi roli, mustaqil fikrlesh, hamkorlik va shaxslararo munosabatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga yo'naltirilgan sotsial-psixologik kompetentlik omillari tadqiq qilingan.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy psixologiya, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayonini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tegishli fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomala amalga oshira oladi. Ayni paytda, psixolog ekspert va mutaxassisning ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va

malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozisiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr british imkoniyatini beradi. Bunda "Qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivasion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I. Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o'rghanadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lmdir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

- yaxlitlik va tizimlilik prinsipi, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;
- obyektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, obyekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;
- sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;
- turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik-individual psixologik xususiyat ekanligi, kompetensiya esa ta'lismi-tarbiya oluvchining aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan ta'limi tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik faqatgina individual psixologik xususiyat emas, balki hissiy-irodaviy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Chunki agar mana shu hissiy-irodaviy sifatlar bo'lmaganida edi psixologik ekspert va mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qila olmas edilar.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G. Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka fikrlash asosida talqin qiladi:

- 1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);
- 2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Quyidagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ohib berishga xizmat qiladi.

Biz fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tuzilmasida, ijtimoiy-psixologik kompetentlik namoyon bo'lish holatlarida o'z-o'zini nazorat qilish, shaxsiy imkoniyatini amalga oshirish qobiliyatini aks ettiruvchi belgilarni ajratish zarur. Bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llash shaxsdan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlari shakllanganlanishini talab qiladi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentligining quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

- a) ijtimoiy - o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dirlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;
- b) kommunikativ - turli tillardagi yozma va og'zaki muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;
- v) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;
- g) kognitiv-doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;
- d) madaniyatlararo kompetensiyalar;
- y) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;
- j) maxsus-kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarida kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot kommunikativ va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sud psixolog eksperti va mutaxassis ijtimoiy-psixologik kompetentligining to'liq tuzilmasi motivatsion-yo'naltiruvchi bo'g'in, rivojlantiruvchi, korreksion va kasbiy ahamiyatiga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sud psixolog eksperti va mutaxassisning

kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentligini ta'minlashga qaratilgan psixologik yondashuv yo'llarini izlashga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotgani psixologlar oldiga davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim tadqiqotlarni olib borish va bu boradagi barcha masalalarni hal qilishga astoydil kirishish vazifasini yuklamoqda. Chunki, ijtimoiy-psixologik kompetentlik va uning omillari o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganmay turib, sud-huquq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan psixolog ekspert va mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ko'lamenti ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish aslo mumkin emas. Zero, kasbiy kompetentlik yuridik sohaga aloqador bo'lgan psixologik xizmat jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, psixologik xizmatning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlarining sintezidir.

Shuningdek, kasbiy kompetentlik sud psixolog eksperti faoliyatning eng yuqori darajasi, deb tavsiflanadi. Ijtimoiy-psixologik kompetentlik esa psixolog ekspert faoliyatining eng yuqori cho'qqisi bo'lib, muayyan vaqt mobaynida samaraga erishishdir. Qolaversa, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning muhim omili bu psixolog ekspertning nutqi va kommunikativ muloqot ko'nikmalarining namoyon etilishidir.

Umuman olganda kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlikka ega bo'lish har bir psixolog ekspertlardan o'z ustida ishlashni talab qiladi. U amaliy ish tajribasi asosida shakllanadi. Biroq, har qanday tajriba ham kasbiy kompetentlik manbai bo'la olmaydi. Kompetentlikni asosi nazariy bilim, ko'nikma va malaka, mehnat, faoliyatni aniq maqsadga yo'nalganligi va faoliyat jarayonini muvaffaqiyatli yaratish bo'lsa ijtimoiy-psixologik kompetentlikning asosi esa shaxs sifatlarining bevosita namoyon etilishidir.

G'arb olimlari L. Stross va D. Mayerslar kompetentlik shaxsning ixtisosligi bo'yicha aniq faoliyatni bajarishda zarur bo'ladigan qobiliyatlar majmui, malakalarining namoyon bo'lishi, ma'suliyat hissining mujassamlashuvi natijasida paydo bo'ladigan tafakkur turi deb tavsiflaydilar

O'zbekistonda XX asrning 70-80 yillardan boshlab, psixologiya, yuridik psixologiya, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o'zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda halqaro talablar asosida qayta ko'rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud-psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasi O'zbekiston JPKning tegishli moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga, shuningdek, sudyaning ajrimiga ko'ra tayinlanadi. Sudda esa ko'rileyotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o'z yechimini topmaganligiga shubha tug'ilgan holatlarda suda tomonidan chiqarilgan qaror yoki ajrimga binoan sud-psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjalarda ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonna ma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud-psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to'g'risidagi fikr aks etgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo'lgan savollar qo'yilishi kerak.

Jinoyat protsessual kodeks talablariga ko'ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud-psixologik ekspertizasi o'tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud-psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq, deb bo'lmaydi. Chunki ayrim hollarda psixologik eksperiment o'tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta'sir qilishi, ya'ni uning ko'nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o'z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo'lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo'yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta'kidlab, jinoyatning sodir etish holatlarini ekspertiza xulosasida ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko'rileyotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, unutmaslik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o'rganilayotgan respondentga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo'shimcha ma'lumotlar olinishi lozim bo'lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud-psixologik ekspertizasini o'tkazish dastlabki tergov jarayonida o'tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Xususan, sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan holatlar bo'yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so'roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko'rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspertni yoki ekspert komissiyasini (ekspertiza o'tkazish bo'yicha tegishli tashkilot) tanlashdir. Shuning uchun biz quyida

psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo'yicha batafsilroq fikr yuritamiz:

Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo'lishi lozim. Chunki mutaxassislar hamkor va hamfikr bo'lib, birqalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.

Psixologik ekspertiza o'tkazishga 5 yildan kam bo'Imagan mehnat stajiga ega bo'lgan psixologlar, shuningdek, oliv o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir;

Ekspert komissiyasi tarkibida huquqshunoslik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis xodim hamda huquqshunos bo'lishi shart. Chunki, oliv o'quv yurtlari psixologiya fakultetlarini tugatgan psixologlar ko'pincha ekspertizaning huquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo'lgan huquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin;

Katta yoshdagagi shaxsni sud-psixologik ekspertizasidan o'tkazishga umumiyligini va huquqshunoslik psixologiyasi mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birqalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o'tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o'tkazishda komissiya tarkibiga umumiyligini psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislarini va 1-2 ta psixiatr kirgani ma'qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqorida mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo'yicha (agar u mavjud bo'lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixolog-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislarini va albatta, texnik mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi shart.

Sud-psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi:

Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o'tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;

Tadqiqotni o'tkazish;

Xulosa uchun ahamiyatlari bo'lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;

Tadqiqot natijalarini asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;

Ekspertlarni so'roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o'rghanishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va o'rghanish usulini (metodika) tanlash jarayoni ham amalgalash oshiriladi. Shundan so'ng, dastlabki asosiy eksperiment o'tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlayotgan xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Psixologik ekspertiza xulosasining asosliligi, uni tashkil etish, o'tkazish, to'g'ri metodika tanlash mutaxassislarning malakasiga, nazariy va amaliy bilimiga bog'liqdir.

Jinoyatni ochishda sud ekspertizalarining ahamiyati katta. Jumladan, sud-psixologik ekspertizasi ham jinoyatlarni ochishga, jinoyatchining psixologiyasini aniqlashga, adolatli jazo tayinlashda katta yordam beradi. Sud-psixologik ekspertizasi quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

Shaxsning yosh davriga ko'ra psixik rivojlanishdan orqada qolishini, ya'ni psixik va aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan mos yoki mos emasligini aniqlash zaruriyati tug'ilgan hollarda;

Kasallikni boshdan kechirgan yoki ayni paytda ruhiy xastalikka chalingan holatlarida (psixiatrik bo'Imagan);

Boshidan kechirgan yoki ayni chog'da somatik kasalliklarga, ayniqsa, infektion, surunkali va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga duchor bo'lgan holatlarida;

Jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'luchchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me'yorlariga zid xulq namoyon bo'lgan yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatinining yuzaga kelishiga sabab bo'luchchi ayrim omillar ko'zga tashlanish holatlarida;

O'z hatti-harakatining ahamiyati va axloqiy mohiyatini tushunib etmaslik holatining mavjudligi haqida shubha paydo bo'lgan paytda;

Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining berayotgan ko'rsatmasi uning xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmayotganligiga shubha paydo bo'lgan paytda;

Yozilgan matn muallifini aniqlash zaruriyati tug'ilgan paytda;

Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning shaxs va individual-psixologik, yosh va aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra sodir etilgan jinoiy harakatning mohiyatini, oqibatini tushunish va aniq baholay olish hamda to'g'ri ko'rsatma bera olish layoqatiga ega ekanligini oydinlashtirishda;

Jabrlanuvchining jinsiy munosabatlarga bog'liq jinoyat mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok qila olish qobiliyatini aniqlashda;

Voyaga yetmagan yoshdagи ayblanuvchining ruhiy xastalikka bog‘liq bo‘lmagan holdagi aqliy qoloqlik (psixik rivojlanishdan ortda qolish) xususiyatiga ko‘ra o‘z xatti-harakatlariga javob bera olish qobiliyatini aniqlash zaruriyatida;

Kasbiy faoliyatni bajarishga to‘sinqlik qiluvchi turli xil psixik hodisalarining yuzaga kelish ehtimolini aniqlashda (masalan, aviatsiya, avtomatika va temir yo‘l transportida, avtomatik boshqaruvni ishlab chiqarish operatori faoliyatida ishning me’yoriy davom etishiga to‘sinqlik qiluvchi psixik holatlar yoki hodisalarni o‘rganishda);

Jinoyat sodir etilish paytida ayblanuvchi ongiga ta’sir etuvchi fiziologik affekt yoki boshqa hissiy holatlarning mavjudligini aniqlash maqsadida;

Kishining o‘z joniga qasd qilish (suisid) paytidagi psixik holatini tadqiq etish maqsadida;

O‘limning sabablari va tan jarohatlarining xarakterini aniqlash maqsadida;

Gumondor yoki ayblanuvchilarning jinoiy ish qo‘zg‘atilgan paytda o‘z xatti-harakatlari uchun javob bera olish-olmasligi yoki idora qila olish-olmasligiga, shuningdek, eng asosiysi ruhiy sog‘lomligiga shubha tug‘ilganida, ularning psixik holatlarini aniqlash maqsadida;

Guvoh yoki jabrlanuvchining ishga aloqador shart-sharoitlarini to‘g‘ri idrok qilish hamda ko‘rsatma berish qobiliyatlariga shubha tug‘ilgan kezlarda ularning ruhiy va jismoniy sog‘lomligini aniqlash uchun;

Ish uchun ahamiyatl bo‘lgan, lekin tegishli hujjatlar bo‘lmagan hollarda ayblanuvchi, gumondor va jabrlanuvchining necha yoshga kiganini aniqlash uchun ekspertiza o‘tkazilishi shart bo‘lib hisoblanadi.

Umuman, muayyan darajada namoyon bo‘luvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik mezonlarini psixolog ekspert kasbiy kompetentligini rivojlantirish omili sifatida qarash tendensiyasi nuqtai-nazaridan yuqorida tadtqiqotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, har qanday kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishi bevosita shaxsnинг u yoki bu darajadagi ijtimoiy-psixologik omillari ishtiroti bilan belgilanar ekan. Shu nuqtai nazardan sud psixolog eksperti shaxsi va uning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari kompetentlik istiqboliga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. 18.11.2009 yildagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. “Davlat sud-ekspertiza muassasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Namunaviy Nizom”.
3. Махмудова Х.Т. Индивидуально-психологические особенности личностей, совершивших преступления в состоянии физиологического аффекта. Дис... канд.психол.наук. – ТГПУ, 2009.
4. Леви-Стросс К. Первобитное мишление. – М.: Республика, 1994. – С. 3-14.. Маерс Д. Сотсиальная психология в модулях; Прайм-ЕвроЗнак, Харвест. – М., 2006. – 320 с.
5. Суннатова Р.И. Саморегуляция мыслительной деятельности. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 83.].
6. Теплов Б.М. Психология и психофизиология индивидуальных различий. – М.: МПСИ, 2003 – 246 с.].
7. Гаранина Ж.Г. Психологическая компетентность будущего специалиста: на материале экономико-управленческих профессий: дис.канд. психол. наук. – Казань, 1999. – 183 с.

Мундарижса/Содержание/Contents

№		<i>bet</i>
		<i>стр</i>
		<i>page</i>
1	Сайдов Бахтиёр Одилович	3
	Ўқувчи-ёшларда ватанпарварликни шакллантирувчи ижтимоий-психологик омиллар	
	Социально-психологические факторы формирования патриотизма у студенческой молодёжи	
	Socio-psychological factors formation of patriotism among student youth	
2	Носиров Джамол Шухратович	9
	Спортчи ва мураббийлар ўртасидаги шахслараро муносабатлар шаклланишининг назарий асослари	
	Теоретические основы формирования межличностных отношений между спортсменами и тренерами	
	Theoretical basis of the formation of interpersonal relationships between athletes and coaches	
3	Жумаев Улугбек Сатторович	13
	Оилавий низолар ва уларни бартараф этишда миллий қадриятларга йўналганлик установкаларининг етишмаслиги ижтимоий психологик муаммо сифатида	
	Семейные споры и отсутствие норм ориентации на национальные ценности при их устранении как социально-психологическая проблема	
	Family disputes and the lack of orientation standards to national values in their elimination as a social psychological problem	
4	Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich	19
	Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda nizoli vaziyatlar profilaktikasi	
	Профилактика конфликтных ситуаций при подготовке студентов к педагогической деятельности	
	Prevention of conflict situations in the preparation of students for pedagogical activity	
5	Davranova Gulbahor Numondjonovna	25
	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etish	
	Организация процесса урока с учетом психологических особенностей учащихся начальных классов	
	Organizing the lesson process taking into account the psychological characteristics of primary class students	
6	Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li	30
	Yosh sambochilar motivatsiyasini nazorat qilish psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi	
	Психодиагностика и психокоррекция управления мотивацией юных самбистов	
	Psychodiagnostics and psychocorrection of the management of young sambista motivation	
7	Mirzayev Djamshid Turdalievich	39
	Yoshlar ijtimoiy xulq - atvoriga intrnet muloqoti ta’sirining psixologik jihatlari	
	Психологические аспекты влияния интернет-общения на социальное поведение молодежи	
	Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young people	
8	Qodirova Malikaxon Kaxramonovna	47
	Deviant xulq korreksiyasi	
	Коррекция девиантного поведения	

	Deviant behavior correction	
9	<i>Акрамов Абдуалик Абдумуталович</i>	50
	Таълим жараёнига инновацияларни жорий қилиш стратегиялари ва раҳбарнинг роли	
	Стратегии внедрения инноваций в образовательный процесс и роль лидера	
	Strategies for introducing innovations in the educational process and the role of the leader	
10	<i>Атабаева Наргис Батировна</i>	55
	Альтруизм феноменинг психологик талқини	
	Психологическая интерпретация феномена альтризма	
	Psychological interpretation of altruism phenome	
11	<i>Olimov Laziz Yarashovich</i>	63
	Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixlogik kompetentligi va huquqiy bilimdonligini rivojlantirish omillari	
	Факторы развития социально-психологической компетентности и правовых знаний судебного психолога-эксперта	
	Development factors of social-psychological competence and legal knowledge of forensic psychologist expert	
12	<i>Каршибоева Гулноза Абдукадировна</i>	69
	Социально - психологическое влияние на личность подростка	
	Socio - psychological impact on the personality of a teenager	
	O'smir shaxsiga o'tkazilsdigan ijtimoiy-psixologik ta'sir	
13	<i>Бахриева Наргиза Ахмадовна</i>	73
	Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари тадқики	
	Изучение психологических аспектов социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста	
	Study of psychological aspects of social-emotional development of preschool children	
14	<i>Гайбулаев Алишер Асадович</i>	78
	Психологические факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга	
	Буллинг ҳолатларида ўсмирлар хулқ-авторининг психологик хусусиятлари	
	Psychological factors of role behavior of adolescents in a situation of bullying	
15	<i>Ганжиев Феруз Фурқатович</i>	83
	Мактабгача таълим ташкили тарбиячилари ижтимоий-психологик компеентлигини тадқиқ қилинудуби	
	Методика исследования социально-психологической компетентности учителей школьной образовательной организации	
	The method of researching social-psychological competence of teachers of school education organization	
16	<i>Жумаев Нодир Зайнiddинович</i>	89
	Педагогическая агрессия как профессионально обусловленная деформация учителя	
	Педагогик агрессия ўқитувчининг касб билан шартланган деформация сифатида	
	Pedagogical aggression as a professionally caused deformation of a teacher	
17	<i>Жуманиёзова Насиба Раматилаевна</i>	93
	Аутизм синдромли болалар ота-оналарининг копинг стратегиялари психологияк тавсифи	
	Психологическое описание копинг стратегий родителей для детей с синдромом аутизма	
	Psychological description of parents' coping strategies for children with autism	
	Жўраева Соҳибжамол Норқобиловна, Нормуродова Нафиса Баҳриддиновна	97



18	Саломатлик ва соғлом психологик ҳаёт	
	Здоровье и здоровая психологическая жизнь	
	Health and healthy psychological life	
19	Имомкулова Фотима Улугбековна	103
	Оилада шахслараро муносабатнинг болалар ўз-ўзини англашига таъсири	
	Влияние межличностных отношений в семье на самосознание детей	
	Influence of interpersonal relations in the family on children's self-consciousness	
20	Исматова Дилафуз Туймуратовна	107
	Научно-практические основы эмоционального выгорания подростков в семейных отношениях	
	Oilaviy munosabatlarda o'smirlarning emotsional kuyishini ilmiy-amaliy asoslari	
	Scientific and practical bases of emotional burnout of adolescents in family relations	
21	Усмонов Шерзод Ахмаджонович	111
	Талабалардаги ақлий қобилиятлар касбий муваффақиятнинг асоси сифатида	
	Умственные способности студентов как основа его профессионального успеха	
	The mental abilities of students as the basis of his professional success	
22	Холмуродова Шохиста	116
	Девиант хулқ-авторнинг социологик ва психологик тадқиқи	
	Социологическое и психологическое исследование девиантного поведения	
	Sotsiologicheskoye i psikhologicheskoye issledovaniye deviantnogo povedeniya	
23	Umarova Navbahor Shokirovna	120
	Aholi iqtisodiy ijtimoiylashganligining motivatsion-qadriyatli tuzilmasi: hududiy va gender tahlil	
	Мотивационно-ценостная структура экономической социализации населения: территориальный и гендерный анализ	
	Motivational-value structure of the economic socialization of the population: territorial and gender analysis	
24	Рўзиев Умар Музафарович	125
	Ўспиринларда ижтимоий фобия ривожланиши билан боғлиқ ҳолатларнинг диагностикаси ва психокоррекцияси	
	Диагностика и психокоррекция состояний, связанных с развитием социальных фобий у подростков	
	Diagnostics and psychocorrection of conditions related to the development of social phobias in adolescents	
25	Касимова Сарвиноз Бахтиёровна	132
	Развитие системы психологической защиты от манипулятивных воздействий в юношеском возрасте	
	O'smirlik davrida manipulyativ ta'sirlardan psixologik himoya tizimini rivojlantrish	
	Development of the system of psychological protection against manipulative influences in youthful age	
26	Қамбаров Мирзобобур Баҳодир ўғли, Элов Зиёдулло Сатторович	137
	Амир Темур давлатида тезкор қидирув фаолияти жараёни ва унинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	
	Процесс оперативно-поисковой деятельности и его социально-психологическая характеристика в государстве Амира Темура	
	The process of quick search activity and its social-psychological characteristics in the state of Amir Temur	
27	Мўминов Давронжон, Ражабов Муродил	140
	Шахслараро муносабатларда психологик таъсири усуллари таҳлили	
	Анализ методов психологического воздействия в межличностных отношениях	
	Analysis of methods of psychological influence in interpersonal relationships	

	<i>Nazarova Dilnoza G'ulomovna</i>	145
	Ona tili ta'limida pragmatik qiymatli topshiriplardan foydalanish – samaradorlik omili	
28	Использование прагматических задач в образовании родного языка - фактор эффективности	
	The use of pragmatic tasks in education of the native language - the factor of efficiency	
	<i>Назарова Зилола Хайруллаевна</i>	150
	Бокс спорт турини қизларнинг мотивацион ҳолатига тъсири	
29	Влияние занятий боксом на мотивационное состояние девушек	
	The influence of boxing sports on the motivation state of girls	
	<i>Байкунусова Гулмира Юлдибаева</i>	155
	Ҳасад ижтимоий ҳодиса сифатида экспериментал тадқиқ этишили	
30	Экспериментальное исследование зависти как социального феномена	
	Experimental study of jealousy as a social phenomenon	
	<i>Пўлатова Назира, Эргашева Мухлиса Фарход қизи</i>	160
	Оиласда соглом турмуш тарзини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик масалалари	
31	Социально-психологические задачи формирования здорового образа жизни в семье	
	Socio-psychological tasks of forming a healthy lifestyle in the family	
	<i>Ражабов Муродил, Ражабова Хуршида</i>	165
	Шахслараро муносабатларда мулоқотнинг макиавелистик усули ва уни психологик тадқиқ этиши	
32	Макиавеллистский метод коммуникации в межличностных отношениях и его психологическое исследование	
	Machiavellian method of communication in interpersonal relationships and its psychological study	
	<i>Tashpulatova Nodira Xudjamuradovna</i>	172
	O'smir yoshdagи o'quvchilar bilan ishlashda mustaqil va ijodiy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari bilan ishslash	
33	Работа с школьниками-подростками с особенностью самостоятельного и творческого мышления	
	Working with teenage students with specific characteristics of independent and creative thinking	
	<i>Хакимова Фазолат Хошимовна</i>	176
	Шарқ мутаффакирларининг оила ва оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш борасидаги ғоялари	
34	Идеи восточных мыслителей о семье и укреплению семейных отношений	
	Ideas of eastern thinkers about family and strengthening family relations	
	<i>Axmedov Anvar Diyor o'g'li</i>	180
	Globalashuv jaryonida o'smirlarda deviant xulq-atvor ko'rinishlari shakllanishida internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	
35	Влияние интернета и социальных сетей на формирование девиантного поведения подростков в условиях глобализации	
	The influence of the internet and social networks on the formation of deviant behavior in adolescents during globalization	
	<i>Do'sanov Elbek Abdusamatovich</i>	184
	O'smirlarni virtaul olam ta'sirlaridan asrash, ularda internetga tobeklik va uni bartaraf etishda xorij va o'zbek olimlarining qarashlari	
36	Ideas of foreign and uzbek scientists on protecting teenagers from the effects of the virtual world, internet dependence in them and its elimination	
	Идеи зарубежных и узбекских ученых о защите подростков от воздействия виртуального мира, зависимости у них интернета и ее устранения	



Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring
PSIXOLOGIYABUXDU.UZ

**Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab
olishingiz mumkin**



PSIXOLOGIYA
 ilmiy jurnal
 4-son (52)
 Buxoro – 2022. 191 b.

PSIXOLOGIYA
 научный журнал.
 Выпуск 4. (52)
 Бухара – 2022. – 191 с.

Jurnal O'zbekiston
 psixologlarining BuxDU
 muassisligidagi nashri
 hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
 uchun bosmaxona
 javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
 sahifalandi.
 Bosishga ruxsat etildi

Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
 Tezkor bosma usulda bosildi.
 Shatrali bosma tabog'i - 28 Buyurtma
 №123. Adadi – 50
 Bahosi kelishilgan narxda.
 "Sharq Buxoro" MCHJ
 bosmaxonasida chop etildi.
 Bosmaxona manzili:
 Buxoro sh. M. Iqbol, 11-uy.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291

